

**«MAKTABGACHA TA'LIM KLASTERLARINI  
TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY  
TENDENSIYALARI: KORIJ TAJRIBASI»**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**22.11.2023 yil**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH SO‘ZI</b> .....	<b>3</b>
O.X. Xamidov. MAKTABGACHA TA’LIM: MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.....	3
<b>1 – SEKTOR: MAKTABGACHA TA’LIMDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIM</b> .....	<b>5</b>
Azimov Yunus Yusupovich. MAKTABGACHA TA’LIM KLASTERINI TASHKIL ETISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	5
Rafiyeva Olima Abduraufovna. MAKTABGACHA TA’LIM — UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINING POYDEVORI .....	7
Bozorova Saodat Sobirjonovna. MAKTABGACHA TA’LIM- ERTANGI KUNGA ZAMIN..	10
Бабаева Шоира Баймурадовна. ЭТНОКУЛЬТУРНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.	12
Chudakova Vira Petrovna. A creative approach and foreign experience in implementing the program “Managerial competence of managers in developing the psychological readiness of teachers for innovation activity” and “developing their competitiveness” in the context of improving the management system of preschool education .....	16
Жумашева Гулнара Хамидуллаевна, Аймбетова Даметкен Максетовна. ИГРА КАК ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ .....	23
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, Хакимова Наргиза Супхановна. ОРГАНИЗАЦИЯ КЛАСТЕРОВ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	27
<b>2 – SEKTOR: MAKTABGACHA TA’LIM VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB INTEGRATSIYASI ISTIQBOLLARI</b> .....	<b>32</b>
Nizomova Shoxista Shodiyevna. BADIY ADABIYOTNING MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA .....	32
Shoxista Shodiyevna Nizomova. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITISHDA XALQ O‘ZAKI IJODINING O‘RNI.....	33
Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna. KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING AHAMIYATI .....	35
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna, Fayzulloyeva Zulfizar Nutfillo qizi. MAKTABGACHA TA’LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI .....	38
Хамраева Нигора Абдуллаевна. ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ. ....	40
Shodiyeva Moxiniso Baxodirovna. KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI TOVUSHLARINI TALAFFUZ QILISHGA O‘RGATISH.....	42
Shomurodova Dilnura. MAKTABGACHA TA’LIMDA XALQ DOSTONLARNI O‘RGATISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY AHAMIYATI.....	43
Mehriddinova Laylo Mexridin qizi. YOSH AVLODNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING DIDAKTIK AHAMIYATI .....	46
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna. “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIK- BAIY XUSUSIYATLARI.....	48
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna. “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI.....	51
Firuz NURULLOYEV, Shonazar G‘AYBULLAYEV. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIMI SIFATINI INNOVATSION BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	53
Axmedova Dildora Qudratillayevna. MAKTABGACHA TA’LIM VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB INTEGRATSIYASI ISTIQBOLLARI .....	55
Saidova Nodira Mustakimovna. “AVESTO” TADQIQIDA RAHIM VOHIDOV MAHORATI	57

2. Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1974. – С.76.
3. Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Т.: Фан, 2011. – Б.93-94
4. Эшонкул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Т.: Фан, 2006. – Б.5.
5. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б. 144-145.
6. “Ўзбек маросим фольклорини ўрганишнинг янгича тамойиллари” мавзуидаги Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Навоий, 2007. – 220 б.
7. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.
8. Uraeva, D. S., Sharipova, M. B., Zaripova, R. I., & Nizomova, S. S. (2020). THE EXPRESSION OF THE NATIONAL TRADITIONS AND BELIEFS IN UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 469-472.

## “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI

**haripova Maxbuba Baxshilloyevna**  
*Buxoro davlat universiteti*  
**Maktabgacha ta’lim kafedrasida o’qituvchisi, PhD**

**Annotatsiya:** Maqolada “Alpomish” eposining qadimiyligi va an’anaviyligi, marosimlarning arxaik- badiiy ifodasi, uning badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo’lgan bu lirik merosining badiiy tili nuqtai nazaridan o’rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf odatlari, qadriyatlarini chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotgani xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

**Аннотация:** В статье изучение древности и традиционности эпоса «Алпомиш», архаико-художественного выражения обрядов, его художественно-эстетического и поэтического мышления с точки зрения художественного языка этого лирического наследия является глубоким исследованием национальной культуры, быта и обычаев нашего народа, думается, служит достойным источником понимания.

**Ключевые слова:** народный эпос, фольклор, фольклористика, любовь, национальная культура, обряд, традиция, соотношение обряда и эпоса.

**Abstract:** In the article, the study of the antiquity and traditionality of the epic “Alpomish”, the archaic-artistic expression of rituals, its artistic, aesthetic and poetic thinking from the point of view of the artistic language of this lyrical heritage is a deep study. The national culture, life and customs of our people, I think, serves as a worthy source of understanding.

**Key words:** folk epic, folklore, folkloristics, love, national culture, ritual, tradition, relationship between ritual and epic.

“Alpomish” dostoni o’zbek xalqi qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalaridan biridir. Unda Alpomishning o’z yaqinlari tinchligi, baxtu saodati yo’lida ko’rsatgan qahramonliklari madh etiladi. Shu bilan birga, ushbu dostonida jamiyat va inson hayoti masalalari o’ziga xos reallikda – qahramonlik va go’zallik haqidagi xalq ideallari doirasida kuylanadi.

“Alpomish” dostoni turkiy xalqlar patriarxat hayotining o’ziga xos poetik ko’zgidir. Bu doston bir qancha turkiy va ularga yaqin yashagan ayrim turkiy bo’lmagan xalqlar orasida juda keng tarqalgan. Uning o’zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston holida; tojik, tatar, boshqird, O’rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir. O’rta asr o’g’iz eposining muhim yodgorligi “Kitobi Dada Qo’rqut” tarkibidagi “Bamsi Bayrak” asari o’zining sujeti va kompozitsion qurilishi jihatidan “Alpomish” dostoniga juda ham yaqin turadi.

V.M.Jirmunskiy o’zining “Turk qahramonlik eposi” kitobida Alpomish mazmunidagi asarning qo’ng’iroq, o’g’iz, qipchoq, oltoy versiyalari mavjudligini ko’rsatib o’tadi. “Alpomish”

dostoni o‘zbek xalqi orasida ikki (o‘zbek va qoraqalpoq) versiyada va ko‘plab variantlarda juda keng tarqalgan. O‘tgan asrda uning variantlari o‘ttizga yaqin xalq baxshisidan qirqaqa yaqin variantda yozib olingan. Uning to‘la variantlari Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Berdi baxshi, Bo‘ri Sodiq o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Umir Safar o‘g‘li kabi yetakchi dostonchi baxshilardan yozib olingan. Shular orasida eng mukammali, badiiy jihatdan eng yuksagi atoqli xalq shoiri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan nusxa hisoblanadi. Unda shoirning yuksak dostonchilik mahorati to‘la namoyon bo‘lgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li “Alpomish” dostonini butun umr bo‘yi kuylab kelgan. Atoqli shoir Hamid Olimjonning obrazli iborasi bilan aytganda, bu doston uning shoirlik beshigi bo‘lgan.

Sevimli yor, oila va shu bilan bog‘liq ravishda yangi tipdagi urug‘ birligi uchun kurash hamda bunga to‘sqinlik qiluvchi barcha qora kuchlarni yengish “Alpomish” dostonining asosiy g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi.

Dostonda xalqimizning qahramonlik haqidagi g‘oyalari, mardlik tuyg‘usi yorqin tasvirlanadi. Dostonda yorga erishish uchun mard bo‘lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g‘oya bo‘rtib turadi:

Dushman ko‘rsam, kesib bag‘rin tuzlayman,  
Aslim sherman, o‘zim yo‘lbars izlayman.<sup>3</sup>

Dostonda qahramonlik, jasurlikni ulug‘lash, mardlik tuyg‘ulari vatanparvarlik g‘oyasi bilan uzviy bog‘langan holda tasvirlanadi. Doston qahramonlari o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eli, Boysun-Qo‘ng‘irot diyori bilan mahkam bog‘langandir. Ular qaerda bo‘lmasinlar, shu el, shu diyorning g‘am-alamiga sherik bo‘ladilar, shu el, shu diyor sog‘inchi bilan yashaydilar. Doston qahramonlarining o‘z qabilasi, xalqi va yurtiga bo‘lgan vatanparvarlik hislari, xususan, dostonning ikkinchi qismida juda ta’sirli tasvirlangan. Bu hissiyot qahramonning tutqinlik davrida g‘oz orqali vataniga salom yo‘llashida; Barchin, Qaldirg‘och, Yodgorlarning hijron alamlari tasvirida, qahramonning yo‘ldagi uchrashuvlari epizodlarida yanada yorqin aks etgan. Umr bo‘yi tug‘ilib o‘sgan yurtini, xalqini sevgan Alpomishdagi bu hissiyot yetti -yillik asirlikdan keyin ona tuproqqa qadam qo‘yganda yanada yuqori nuqtaga ko‘tariladi, vatani, eli haqida turli xayollarga boradi. Dostonda elu yurtga muhabbat motivlari urug‘ birligi g‘oyasi bilan birlashib ketadi. Ajralish qabila a‘zolari boshiga og‘ir kulfatlar keltiradi. Barchin, Qaldirg‘och, hatto Boysarining o‘zi ham o‘zga mamlakatda xor-zor bo‘lishlarini takror-takror aytadilar. Dostonning har ikkala qismida ham Alpomishning Barchinga uylanishi qo‘ng‘irot urug‘ining yangidan birlashishiga olib keladi.

Xalqimiz taqdiri, vatanimiz tarixida yuz bergan muhim voqea-hodisalar, ajdodlarimizning o‘z mustaqilligi, tinch va farovon hayot uchun kurashi haqida hikoya qilishi, o‘z elini qadrlash, go‘zal urf-odatlaru o‘lmas an‘analarga ergashish to‘g‘risida hikoya qiluvchi bu doston yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda bugungi kunda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etishi bilan e‘tiborga loyiq.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қахрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1998. – 400 б.
2. Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1974. – С.76.
3. Эшонқул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Т.: Фан, 2011. – Б.93-94
4. Эшонқул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Т.: Фан, 2006. – Б.5.
5. Саримсоқов Б. Ўзбек фолклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б. 144-145.
6. “Ўзбек маросим фольклорини ўрганишнинг янгича тамойиллари” мавзuidaги Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Навоий, 2007. – 220 б.
7. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.

<sup>3</sup> Алпомиш. – Б.209.

8. Uraeva, D. S., Sharipova, M. B., Zaripova, R. I., & Nizomova, S. S. (2020). THE EXPRESSION OF THE NATIONAL TRADITIONS AND BELIEFS IN UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 469-472.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIMI SIFATINI INNOVATSION BOSHQARISH MEXANIZMLARI

**Firuz NURULLOYEV**

Buxoro davlat universiteti  
Axborot tizimlari va raqamli  
texnologiyalar kafedrası dotsenti

**Shonazar G'AYBULLAYEV**

Buxoro davlat universiteti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi

*Ushbu maqolada maktablarda ta'lim olish sifatini oshirish va amalga oshiriladigan boshqaruv xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlar, ta'lim tizimida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** ta'limi sifati, menejment, innovatsion texnologiyalar, ta'lim va tarbiya, mustaqil ta'lim, masofaviy ta'lim, zamonaviy maktab.

**Ключевые слова:** качество образования, менеджмент, инновационные технологии, образование и воспитание, самостоятельное образование, дистанционное образование, современная школа.

**Keywords:** quality of education, management, innovative technologies, education and upbringing, independent education, distance education, modern school.

Ta'lim sifati maktab muvaffaqiyatining eng muhim ko'rsatkichidir va shuning uchun uni boshqarish maktab ma'muriyati faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylanadi. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2018-yil

5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan<sup>4</sup>. Ushbu konsepsiya asosida hozirgi kun maktablarining holatini tahlil qilib maqola so'nggida xulosa keltiramiz.

Pedagogik formatda ta'lim sifati ikki nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi: birinchidan, ta'lim tizimining belgilangan talablarga muvofiqlik darajasi va ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifati ko'rinishida; ikkinchidan, ta'lim jarayonining sifat samaradorligi ko'rinishida, ijtimoiy mijozlar ehtiyojlarini qondirish nafaqat o'quvchilarning ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirishi, balki ularning shaxsiyati, bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish demakdir.

O'quvchilarning ta'lim sifatini oshirish muammosini hal qilish zamonaviy maktabda o'quv jarayonini tashkil etish va unda amalga oshiriladigan boshqaruv xususiyatlari bilan bog'liq. Aslida, biz ta'lim sifati bilan ta'lim muassasasida tashkil etilgan o'quv jarayoni sifati o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligi haqida gapiramiz, buning natijasida ma'lum sharoitlarda bu natijaga erishiladi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim sifatiga erishish uchun menejment ham yuqori sifatli bo'lishi kerak, bu esa bashorat qilingan natijaga erishishni ta'minlaydigan boshqaruv faoliyati mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Bugungi kun nafasi bilan yashash, zamon bilan hamnafas bo'lish bu iboralar zamirida biz ta'lim va kelajak avlod tarbiyasi, kamoloti uchun rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-4312785?ONDATE=24.07.2021>